

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BALTAYEV UMID RUSTAMOVICH

**IXTISOSLASHTIRILGAN MUSIQA MAKTABLARI O‘QUVCHILARINI
MAQOM CHOLG‘U KUY VA ASHULALARI VOSITASIDA
TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Baltayev Umid Rustamovich

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va
ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish.....3

Балтаев Умид Рустамович

Совершенствование методики обучения учащихся специализированной
музыкальной школы средствами музыкальных инструментов и песни23

Baltaev Umid Rustamovich

Improving the methodology of educating students of specialized music schools
through maqom instruments, melodies, and songs45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published jobs49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BALTAYEV UMID RUSTAMOVICH

**IXTISOSLASHTIRILGAN MUSIQA MAKTABLARI O‘QUVCHILARINI
MAQOM CHOLG‘U KUY VA ASHULALARI VOSITASIDA
TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiq)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2PhD/Ped2610 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertasiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov To‘xtasin Ibodovich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qiyamov Nishon Sadiqovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rahimov Rustam
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 22-may soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11–uy. Tel.: (0 365) 221–29–14; faks: (0 365) 221–57–27; e–mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2345-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11–uy. Tel.: (0 365) 221–25–87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 14-mayda tarqatildi.

(2026-yil 13-mayda 19-raqamli reestr bayonnomasi).



S.Q. Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

F.X. Xazratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.R. Hamroyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sivilizatsiyasi kontekstida maqom san'ati nafaqat nomoddiy madaniy meros (UNESCO), balki jamiyatning antropologik va estetik evolutsiyasini belgilovchi noyob fenomen hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan musiqa ta'limi tizimida maqom ijrochiligini o'qitish metodikasini etnopedagogik paradigmalar va innovatsion-texnologik modellar asosida takomillashtirish, milliy ijrochilik maktablarining transgeneratsion (avlodlararo) davomiyligini hamda globallashtirish sharoitida madaniy o'zlikning barqaror rivojlanishini (Cultural Sustainability) ta'minlovchi strategik mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Maqom cholg'u kuy va ashulalari musiqiy ta'limning aksiologik asosi sifatida, o'quvchilarning badiiy-kognitiv salohiyatini va estetik intellektini shakllantirishda fundamental ahamiyatga egaligi bilan dolzarblik aks etmoqda.

Dunyo madaniyati tarixida shunday musiqiy meroslar bor, ularning uzoq davrlar mobaynida musiqa san'atida olib borgan uzluksiz samarali faoliyati, bir necha avlod vakillarining mazkur soha rivoji va ravnaqiga qo'shgan hissalarini, qo'lga kiritgan ulkan ijodiy yutuqlari jamiyat tomonidan yorqin fenomen sifatida qayd etilishiga asos beradi. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish jahon va mahalliy san'atda katta davr, butun bir mamlakat ijodiy maktablari va ijrochilik uslublarining yuzaga kelishi va rivoji, davomiyligi va taraqqiyotini ijodiy ta'minlashga asos bo'lgan. Maqom cholg'u kuy va ashulalari madaniyat va san'at olamida musiqiy ta'limda ma'naviy meros shakli sifatida maydonga kelib, o'z o'rnini va mavqegini asrlar mobaynida jamiyatda mustahkamlab borgan.

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o'zbek «Shashmaqomi» nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom cholg'u kuy va ashulalari ining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. «Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur. Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi... Maqom san'ati uchun asosiy mavzu – eng avvalo, shaxs, uning erki va qadri, tinchlik-totuvlik, hamjihatlik va umumbashariy taraqqiyot hisoblanadi”¹. Milliy musiqa san'atimizning mahalliy uslublari, asriy an'analari, qadriyatlarga tobora yuksak e'tibor berilayotgani tufayli qayta tiklanmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san'at. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2018. 7 sentyabr. №185 (7143) – B.1.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 27-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-son Farmonlari, 2017-yil, 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3391-son, 2018-yil, 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son, 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son, 2023-yil 30-avgustdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llabquvvatlash choralari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘iga muvofiq “Maqom xonandaligi ta‘limini rivojlantirishda ilm-fan va ta‘lim integratsiyasini kuchaytirish maqsadi”da 2023-yil 22-noyabrda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutida “Maqom xonandaligi ta‘limida ovozni yo‘lga qo‘yish masalalari”ga doir qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur Dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasi muammosi bo‘yicha F.M.Karamotov, I.Rajabov, T.B.G‘ofurbekov R.S.Abdullayev, O.Matyoqubov, O.Ibragimov, va S.Begmatovlarning tadqiqotlarini ta‘kidlab o‘tish joiz. Keyingi yillarda respublikamiz olimlari tomonidan xalq musiqasi orqali yoshlarni axloqiy-estetik tarbiyalashga bag‘ishlangan ayrim ishlarda Q.B.Panjiyev, N.S.Qiyomov, T.I.Rajabov, M.M.Qosimova, D.Ro‘ziyev, N.Tolibboyev, A.Sh.Hasanov, A.Jumayev, O.Ibragimov, A.Nazarov, D.Rashidova, B.Karomatov, B.Madrimovlar tarbiyaviy imkoniyatlari, ulardan tarbiya tizimida foydalanish jihatlarini o‘rgangan. O‘zbek xalq musiqa san‘atining badiiy–estetik ta‘lim–tarbiya masalalarini A.Mo‘minov, D.Kamolova, R.Tursunov, M.Yo‘lchiyeva, M.Qosimova, B.Azimov, R.Qodirov, B.Mustafoevlar o‘rgangan.

O‘zbek milliy maqom cholg‘u musiqa namunalarini to‘plash, nashr etish borasida ham e‘tiborga loyiq ishlar amalga oshirilgan. Y.Rajabiy, M.Yusupov, R.Boltayev, B.Matyoqubovlar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida maqom cholg‘u kuylari namunalari hamda uning “genezisi” ga alohida e‘tibor qaratganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari V.A.Uspenskiy, N.N. Mironov, Y. Y. Romanovskaya, T.S.Vizgolar o‘zbek musiqasi va uing o‘ziga xosligi,

Shashmaqom tarkibi, musiqa ohanglari, kuylar tasnifi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan.

Xorijlik olimlar H. Powers, J.Elsner, E.Neubaer, K. Signell maqom tarixi, uning xorijiy musiqa yo'nalishlariga ta'sir bo'yicha bir qator izlanishlar va tadqiqotlar olib borishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi:

Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Yuksak ma'naviyatli, jismonan barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish (2021-2024-y.y.)" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish dolzarbligini ilmiy asoslash;

o'quvchilarni maqom kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning didaktik mazmunini takomillashtirish;

ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashni ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish;

o'quvchilarni maqom, cholg'u, kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashga yo'naltirilgan baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlab olinib, Buxoro, Xorazm va Samarqand viloyatlari ixtisoslashtirilgan maktablari dan 485 nafar o'quvchilar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishning mazmuni, uni tanlash prinsiplari, vositalari, usullari, metodlari, pedagogik shart-sharoitlari, modeli va joriy etish mexanizmlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir tarixiy, falsafiy, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, umumiy o'rta ta'lim maktablari dagi ilg'or tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotdan ilmiy yangiligi:

ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o'quvchilarini maqom, cholg'u, kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishning dolzarbligi maqom san'ati hamda xalq merosining pnevmatik (ruhiy) va semantik mazmunini qiyosiy-germenevtik tahlil qilish, badiiy tafakkurni shakllantirishning innovatsion-pedagogik determinantlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan;

o'quvchilarni maqom kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning didaktik mazmuni shaxsning ijtimoiy-madaniy identifikatsiyasini ta'minlovchi cholg'u

ijrochiligini milliy-ma'naviy qadriyatlar retranslatiyasi sifatida talqin qilish, badiiy his-tuyg'ularni estetik-sezuvchanlik darajada rivojlantirish va musiqiy tafakkurni evristik xarakterga yo'naltirish mexanizmi orqali takomillashtirilgan;

ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o'quvchilarini xalq musiqiy merosi vositasida klassik maqomlar "Buzruk" "Rost", "Navo", Dugoh", "Segoh", "Iroq" kabi kuy va ashulalarining semantik mazmunini ansambl mashg'ulotlari, kreativ loyihalar va ilmiy-amaliy platformalar bilan integratsiyalash, o'quvchining emotsional-perseptiv reaksiyasi, refleksiv-analitik tafakkuri o'rtasidagi dinamik uyg'unlikni ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarni maqom, cholg'u, kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning mezonini moslashuvchanlik, variativlik, qat'iyatlik, metakognitivlik, optimal yechimlarni tanlashning didaktik imkoniyati maqom va kuylarni tinglash, ularning ohangi, ritmi va turli kuy va maqomlarni solishtirish, his-tuyg'ularga asoslangan holda o'zida ishonch hissini hosil qilish kabi mexanizmlarni ijro xususiyatlariga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash jarayonining metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash usullari takomillashtirilgan;

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish va estetik tarbiyalashning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amal qilingan yondashuv va tamoyillar, qo'llanilgan usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammo yuzasidan respublikamizdagi hamda xorijiy olimlarning g'oyalariga, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning ilmiy-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish tasnifi aniqlanganligi, uning samaradorligini ta'minlovchi omillar ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilinganligi, muammoning yechimi bo'yicha taklif qilingan texnologiyalar, ishlab chiqilgan samarali metodikalar, maqom yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarining nazariy va amaliy faoliyatini innovatsion texnologiyalar asosida loyihalash, yaratilgan o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatmalar musiqa darslari mazmunini takomillashtirishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari ning milliy cholgʻu va maqom asoslari darslari hamda mashgʻulotlarida, oʻquvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlarida optimal foydalanish, oʻquv-meʼyoriy hujjatlarni ishlab chiqish, maqom cholgʻu kuy va ashulalari ni oʻrgatish metodikasidan oʻquvchilarni estetik tarbiyalashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan mutaxassislik fanlaridan yangi avlod darsliklarini yaratishning ergonomik talablarini aniqlash, oʻquv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishning meʼyoriy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkin

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari oʻquvchilarini maqom cholgʻu kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari oʻquvchilarini maqom cholgʻu kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirish haqidagi maʼlumotlar hamda musiqiy-pedagogik faoliyatda qoʻllagan metodik yondashuvlar, qarashlar pedagogik tizim komponentlari musiqiy-pedagogik faoliyatning maqsadi va mazmuni, qoʻllanilgan shakl va vositalar, pedagogik shart-sharoitlarga doir takliflardan “30211202-Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik)” hamda “30211306 - an’anaviy cholgʻu ijrochiligi ta’lim yoʻnalishlarining “An’anaviy Xonandalik” fanlari dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2025-yil 13 - yanvardagi 02-12-17-198–son ma’lumotnomasi). Natijada, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari oʻquvchilarini maqom cholgʻu kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari oʻquvchilarini maqom cholgʻu kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashda musiqiy-pedagogik meros va zamonaviy pedagogik nazariyalar oʻrtasidagi umumiy xususiyatlarga oid tavsiyalar “Maqom yakka xonandaligi” fanidan oʻquv qoʻllanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilgʻor texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022-yil 9-sentybrdagi 302-sonli ma’lumotnomasi) Natijada, oʻquvchilarni maqom cholgʻu kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

oʻquvchilarni maqom cholgʻu kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni, uni tanlash prinsiplari, omillari, kognitiv, shaxsga yoʻnaltirilgan texnologiyalarni qoʻllash imkoniyatlarini kengaytirish asosida ishlab chiqilgan ta’lim texnologiyalaridan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi “Assalom Xorazm” koʻrsatuvining ssenariysiga kiritilgan va maqsadli foydalanilgan holda davra suhbat tashkil etilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 17-dekabrda 1093-ma’lumotnomasi). Natijada, suhbat jarayoni yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi toʻgʻrisidagi qarashlardan unumli foydalanilgan.

ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash o'quvchilarda emotsional-labilizatsiyani keltirib chiqarishni o'z tarkibiga oluvchi didaktik shart-sharoitlarni zamonaviy yondashuv tamoyillariga asoslangan metodologik ish shakllarini rekursiv mexanizm sifatida amaliyotda foydalanishga doir tavsiyalardan "OT-F1-002 Yoshlarda milliy g'oya va mavkuraviy immunitetni shakillantirishning psixologik mexanizmlari" nomli loyiha doirasida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda amalda foydanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 6-yanvardagi 01-04/61-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarni maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning mazmuni takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilib, aprobasiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari tavsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 149 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari, chop etilgan ishlar va Dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning nazariy asoslari**" deb nomlanadi. Bunda ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash dolzarabligi, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari ni o'rgatish mexanizmi, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning amaliy holati xususida fikr bayon etilgan.

Maqom san'atining ko'p asrlik ijro yo'llarini puxta o'zlashtirish, ularni yosh avlod vakillariga o'rgatish, shuningdek, maqom san'ati bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida maqom

san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrda 940-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan maqom maktab-internatlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

-o'quvchilarni maqom ijrochiligi yo'nalishida o'qitishning zamonaviy ilg'or pedagogik usullaridan keng foydalanish, o'quv jarayoniga yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish;

-o'quvchilarning yuqori darajada sifatli bilimlar olishini ta'minlaydigan davlat ta'lim talablari doirasida ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlarini amalga oshirish;

-maqom san'ati bo'yicha bilim va tushunchalar, tarixiy va milliy an'analarni puxta egallagan yosh kadrlarni tayyorlash, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni, madaniyat va san'at sohasida ilm-fan bo'yicha erishilgan ilg'or yutuqlarni tatbiq etish kabi vazifalar ijrosini ta'minlash tadqiqotimizning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Maqomning ashula yo'nalishi juda murakkab, bundan tashqari ashulalari da Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk bobokalonlarimiz she'r va g'azallaridan foydalaniladi. Ushbu g'azallarining o'ziyoq insonning ma'naviy kamol topishiga xizmat qiladi. Lekin uni musiqaqa solib, maromida ijro etilsa, o'ylangan natijaga ikki karra ko'proq erishiladi.

O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va yangiliklarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borish, radio va televideniya maqomga bag'ishlangan alohida dasturlar tayyorlash ham ushbu noyob san'atning ommalashishi, targ'ib qilinishi yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ular qalbida milliy mumtoz kuy va ashullalarga mehr uyg'otishda muhim o'rin tutadi.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yoshlarga davlat siyosati darajasida e'tibor berilib, kundan-kunga fan, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonida yoshlarning intellektual salohiyati va tafakkur tarzi ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda.

Nemis faylasuflarining estetik tarbiya haqidagi nazariyalarni tahlil qilgan va bu borada yangicha qarashlarni ilgari surgan o'zbek nafosatshunosi Abdulla Sher estetik tarbiyaga "insonni inson qiladigan hodisa" deb baho beradi va estetik tarbiyaning maqsadini muayyan shaxsning estetik qadriyatlarga munosabatini shakllantirish, unda ijodiy fikrlash, estetik mushohada qilish malakasini yuksaltirishdan iborat ekanligini tushuntiradi: "Estetik tarbiya doimo axloqiylik bilan "kelishib" faoliyat olib boradi, u tufayli odamlar o'zaro munosabatlarning insoniy va go'zal bo'lishiga erishadilar, nafosat o'zini namoyon qiladigan san'at va boshqa ijtimoiy-ma'naviy sohalaridan zavqlana bilish qobiliyatini kamolga yetkazadilar."

Estetik tarbiya insonda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat,

tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiya– shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Nafosat tarbiyasi shaxsning nafosat madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

O'tmishda maqomlar turli ma'noda ishlatilib kelingan. Maqomning dastlabki ma'nosi – ijro etiladigan kuyning lad asosidir. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, maqom atamasi lad uyushmalari bilan bir qatorda musiqa asarlarining musiqa cholg'ularidagi boshlanadigan parda (tonika)sini ham ifodalagan. Bu fikrning ifodasi sifatida musiqa amaliyotimizda ham ba'zi izlar saqlanib qolgan. Masalan, Rost pardasi (Rost maqomi boshlanadigan parda), Ushshoq pardasi, Navo pardasi va hokazo. XIII - XV asr risolalarida “maqom” atamasi “parda” so'ziga ma'nodosh deb ko'rsatiladi.

Maqom deyilganda musiqa cholg'ularining ijro etiladigan kuyga mos qilib sozlanish ham tushuniladi. Rost sozi kabi maxsus atamalar ishlatilib kelingan. Buxoro va Samarqandda sozlarni maqomlarga moslab sozlanishining ifodasi bo'lgan Mezrobi Rost, Mezrobi Navo va Mezrobi Segoh kabi iboralar ishlatiladi.

Mezrobi Rost – tanburni Rost maqomiga, Mezrobi Navo – Navo maqomiga, mezrobi Segoh esa uni Buzruk, Segoh va Iroq maqomlariga moslab sozlanishini ifodalaydi.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib, maqomni shunday ta'riflash mumkin: Maqom – ma'lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalari majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashulalari yo'llari turkumi ma'nosini ifodalab keldi.

Buxoro Shashmaqom san'atini rivojlantirgan makon hisoblanadi. Shashmaqom ushbu ko'p millatli shahar musiqa madaniyatining eng yorqin ana'analari va uslublarini o'zida mujassamlashtirgan. Biroq, shuni ham ta'kidlash joizki, maqomlar mohiyatini faqat Buxoro san'ati bilan cheklash noto'g'ri. Eron, Qoshg'ar, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va islom dunyosining boshqa mamlakatlar maqomot an'analari Shashmaqomning shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda maqom darslarini tashkil etish orqali o'quvchilarda nafosat tarbiyasini shakllantirishda eng avvalo ashuladan, kuydan zavq olishni o'rgatish muhimdir. Maqom san'atida ishlatiladigan so'z matnlari mumtoz adabiyotdagi aruz vaznida yozilgan g'azallar bo'lganligi sababli o'quvchilar ongida uni fikrlash, hazm qilishiga qiynalishini hisobga olib, maqom pardalari usullari asosida yaratilgan o'zbek san'atining bastakorlari ijodi o'rganildi. XX asr boshlarida xorazmlik musiqashunos olim Muhammad Yusuf Devonzoda tomonidan yaratilgan “Musta'zod” ashulasi XXI asr musiqa olamida ham o'zining beqiyos o'rniga egalishi bilan ajralib turadi. O'zbek bastakori To'htasin Jalilov tomonidan yaratilgan “Alpomish” musiqali dramasidagi “Alpomish” ariyasida


Xorazm Suvora janridagi “Ona suvora” ohanglari asosida ishlanganligini tadqiqotimiz davomida aniqladik. XX asr buyuk san’atkori, O‘zbekiston, Turkmaniston, Qoraqolpoqiston xalq artisti bastakor, ijrochi Komiljon Otaniyazov yaratgan Avaz O‘tar so‘zi bilan “Til” qoshig‘i ham o‘quvchilarning tarbiyasida o‘ziga xos ahamiyatga egaligi bilan e’tirofqa loyiq qo‘shiq hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o‘quvchilarini maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishga quyidagi pedagogik talablar qo‘yiladi:

- o‘quvchilarda musiqani sevish, unga havas va qiziqish uyg‘otish;
- maqom kuylarini ijro etish hamda ashulalari ni kuylashning boshlang‘ich saboqlarini berib borish;
- o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish;
- nutq madaniyatiga rioya etish;
- o‘quvchilarning badiiy didlarini tarbiyalash (kiyinish madaniyati, gavnani tik tutish holatlari).

Musiqa va estetik madaniyatning paydo bo‘lishi hamda shakllanib borishida tinglanayotgan har bir asarni o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘zlashtirib olinishiga bog‘liq. Shunda o‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilayotgan saboq va tarbiya ko‘nikmasini o‘zida to‘la mujassamlashtiradi. Ma’lumki, musiqiy tarbiya jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularning his-tuyg‘ularini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi.

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o‘quvchilarini maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishning maqsadi-san’at, tabiat va inson hayotidagi go‘zallikni his etish qobiliyatini o‘z ichiga olgan shaxsning estetik madaniyati shakllantirishdan iborat deb hisoblaymiz. Bu maqsadga quyidagi vazifalarni hal etish orqali erishiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o‘quvchilarini maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashga qo‘yilgan vazifalar

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o‘quvchilarini maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishda o‘qituvchi va tarbiyachilar ta‘lim va tarbiya amaliyotida mavjud bo‘lgan xilma-xil pedagogik metodlar va usullardan foydalanadilar. Asosiy faoliyat shakliga ko‘ra bu metodlar ko‘rgazmali (musiqa asboblarni namoyish qilish, notalar, kitoblar); audial (turli mohir musiqachilar ijrosidagi maqom kuylarini eshittirish, maqom kuylarini chalish); verbal (tushuntirish, ma‘ruza, debat), amaliy guruhga ajratildi. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o‘quvchilarini maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyaning muntazamlilik, tizimlilik, komplekslilik, psixologizm, hayot bilan bog‘liqlik kabi tamoyillaridan foydalaniladi.

Maqom san‘ati o‘zining chuqur falsafiy mazmuni, murakkab ohang tizimi va yuksak badiiy-estetik qiymati bilan yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Xususan, Shashmaqom turkumiga kiruvchi cholg‘u kuy va ashulalar o‘quvchilarda estetik did, sabr-toqat, diqqatni jamlash, milliy o‘zlikni anglash hamda ma‘naviy poklik tuyg‘ularini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

1-jadval

Shashmaqomni o‘rganish asosida o‘quvchilarni maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash shakllari

Tarbiyalash shakli	Shashmaqom namunasi / bo‘limi	Mazmuni	Didaktik imkoniyatlari	Kutiladigan natija
Dars jarayonida integrativ o‘qitish	Buzruk – Saraxbor, Talqin	Tinglash va tahlil asosida lad, usul va shaklni o‘rganish	Nazariy-amaliy uyg‘unlik, musiqiy tafakkurni rivojlantirish	Estetik did, musiqiy savodxonlik
To‘garak va fakultativ mashg‘ulotlar	Rost – Nasr, Ufar	Cholg‘u va vokal ijroni bosqichma-bosqich o‘rgatish	Ansambli ijrochiligi, ritm va ohangni his qilish	Jamoaviylik, ijodiy faollik
Sinfdan tashqari tadbirlar	Navo – Taronas, Soqiynoma	“Maqom oqshomi”, sahna chiqishlari	Sahna madaniyati, badiiy ifodani rivojlantirish	O‘ziga ishonch, milliy qadriyatlarga hurmat
Individual ta‘lim shakli	Dugoh – Savt, Talqincha	Iqtidorli o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash	Ovoz diapazoni va ijro mahoratini oshirish	Yuqori ijrochilik saviyasi
Integrativ-ma‘naviy tarbiya	Segoh – Nasr, Ufar	Maqom mazmunini adabiyot va tarix bilan bog‘lash	G‘oyaviy-estetik tahlil, fanlararo integratsiya	Ma‘naviy-axloqiy yetuklik
Amaliy-ijodiy loyiha shakli	Iroq – Saraxbor	Maqom asosida sahna kompozitsiyasi yoki musiqiy loyiha yaratish	Mustaqil ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv	Tashabbuskorlik, san‘atga qiziqish

Tadqiqot asosida o‘quvchilarni maqom cholg‘u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning tashkiliy-pedagogik shakllari hamda ularning didaktik imkoniyatlari tizimli ravishda yoritilgan. Jadval mazmuni Shashmaqom tarkibidagi

asosiy maqom yo'llari va bo'limlarini (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) ta'lim jarayoniga integratsiya qilish asosida ishlab chiqilgan (1-jadvalga qarang).

Mazkur jadvalning birinchi ustunida tarbiyaviy faoliyat shakllari (dars jarayonida integrativ o'qitish, to'garak mashg'ulotlari, sinfdan tashqari tadbirlar, individual ta'lim, integrativ-ma'naviy tarbiya hamda amaliy-ijodiy loyiha shakli) keltirilgan bo'lib, ular maqom san'atini o'zlashtirishning bosqichma-bosqich va uzviy tizimini ifodalaydi. Ikkinchi ustunda esa aynan qaysi maqom bo'limlari orqali mazkur shakllarni amalga oshirish mumkinligi ko'rsatilgan. Bu yondashuv maqomning nazariy (lad-usul tizimi, shakliy tuzilma) va amaliy (ijrochilik, talqin, sahnaviy madaniyat) jihatlarini uyg'un holda o'zlashtirish imkonini beradi. Jadvalda aks etgan didaktik imkoniyatlar maqom namunalarining nafaqat musiqiy-estetik, balki ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy salohiyatini ham ochib beradi.

Xususan, Saraxbor, Talqin, Nasr, Ufar kabi bo'limlar orqali o'quvchilarda ritmik barqarorlik, ohangni chuqur his etish, sabr-toqat, diqqatni jamlash, jamoaviylik va ijodiy tafakkur kabi sifatlar shakllantiriladi. Shu bilan birga, maqom matnlarida mujassam bo'lgan falsafiy-g'oyaviy mazmun yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarida maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyani shakllantirishning asosiy **funksiyalari** quyidagilar hisoblanadi: **Kognitiv** - go'zallikni anglash orqali inson o'zini va dunyoni idrok etadi. **Dunyoqarashni shakllantirish** - estetik ideal va qadriyatlar insonning dunyo haqidagi umumiy tasavvurini shakllantiradi, uning munosabati va xulq-atvoriga ta'sir qiladi. **Rivojlantiruvchi** – san'at ijodkorlikni, fantaziyani, tasavvurni rivojlantiradi. U xayoliy fikrlashni shakllantiradi va ijodiy faoliyatni boshqaradi. **Kommunikativ** - kuylar va ashullalar nafaqat insonlarni birlashtiradi, ular o'rtasida ma'naviy bog'liqlikni yuzaga keltiradi. **Rekreasion va terapevtik** - ijodiy faoliyatga jalb qilish o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'ldiradi, ularga stressdan xalos bo'lishga va aqliy qobiliyatlarni tiklashga yordam beradi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning metodik ta'minoti**” deb nomlanadi. Mazkur bobda ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish mazmuni, o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish texnologiyalari, o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalashning shakl, vosita va metodlari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish mazmuni quyidagi asosiy tarkibiy yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon, avvalo, Shashmaqom an'analarini chuqur ilmiy-pedagogik asosda o'qitish va tarbiyaviy maqsadlar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi va quyidagilarni o'zida mujassam etadi:

- maqsad va vazifalarni aniqlashtirish;
- mazmuniy komponentni boyitish;
- metodik yondashuvlarni takomillashtirish;
- amaliy-ijrochilik faoliyatini kuchaytirish;
- pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

- baholash mezonlarini takomillashtirish;
- tarbiyaviy natijadorlikni ta'minlash.


Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish – bu an'anaviy ustoz-shogird tajribasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, nazariya va amaliyotni integratsiyalash hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida samarali ta'lim modelini yaratishdan iboratdir.

2-jadval

O'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish texnologiyalari

Texnologiya nomi	Mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan natija
Kompetensiyaviy yondashuv texnologiyasi	Ijrochilik va musiqiy tafakkurni kompleks rivojlantirish	Lad-usulni ongli o'zlashtirish, intonatsion aniqlik, badiiy talqin ustida ishlash	Mustaqil ijro va tahlil kompetensiyasi shakllanadi
Ustoz-shogird an'anasini modernizatsiya qilish	An'anaviy og'zaki uzatish usulini zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish	Jonli namuna, audio-video tahlil, individual mashg'ulotlar	Ijrochilik maktabi davomiyligi ta'minlanadi
Integrativ o'qitish texnologiyasi	Maqomni adabiyot, tarix va san'atshunoslik bilan bog'lash	G'azal matnlarini tahlil qilish, tarixiy maktablarni o'rganish	G'oyaviy-estetik tafakkur rivojlanadi
Modulli o'qitish texnologiyasi	Maqomni bosqichma-bosqich modullar asosida o'qitish	Lad-usul → Saraxbor/Talqin → Nasr/Ufar → Talqin va improvizatsiya	Bilim va ko'nikmalar tizimli shakllanadi
Amaliy-ijodiy loyiha texnologiyasi	O'quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyatga jalb qilish	Ansambl loyihalari, sahna chiqishlari, ijodiy dasturlar	Ijodkorlik va sahnaviy tajriba ortadi
AKT asosida o'qitish texnologiyasi	Raqamli resurslar orqali maqomni chuqur o'rganish	Professional ijrolarni tahlil qilish, notografik dasturlar	Musiqiy eshituv va tahliliy fikrlash rivojlanadi
Differensial va individual yondashuv	Har bir o'quvchining imkoniyatiga mos repertuar tanlash	Ovoz diapazoni va texnik imkoniyatni hisobga olish	Individual mahorat shakllanadi
Reyting va diagnostik baholash texnologiyasi	O'quvchining rivojlanish darajasini monitoring qilish	Intonatsiya, usul, badiiy ifoda va sahna madaniyati mezonlari	Rivojlanish dinamikasi aniqlanadi

Tadqiqotda ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish texnologiyalari tizimli ravishda o'rganildi. Mazkur texnologiyalar Shashmaqom an'analari asosida professional ijrochilik va ma'naviy-estetik tarbiyani uyg'un rivojlantirishga qaratilganligi nuqtayi nazaridan tajriba-sinov jarayonida tadbir etildi. Ushbu texnologiyalarni kompleks qo'llash natijasida ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarida professional ijrochilik mahorati, yuksak estetik did va milliy qadriyatlarga sadoqat shakllanishi dalillandi (2-jadvalga qarang).



2-rasm. Oʻquvchilarni maqom cholgʻu kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishning pedagogik modeli

Texnologiyalar Shashmaqom anʼanalarini ilmiy-metodik asosda oʻqitish, ijrochilik mahoratini rivojlantirish hamda maʼnaviy-estetik tarbiyani kuchaytirishga yoʻnaltirilgan.

Mazkur jadvalda ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari o'quvchilarini maqom cholg'u kuy va ashulalari vositasida tarbiyalash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimlashtirilgan.

